



Description of works on Arabic studies in Ibn Faris's scientific legacy

Salokhiddin KURBONOV¹, Nigina AKHROROVA²

Олийгоҳ (Cambria Math-11)

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form 5
September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online 25 October
2025

Keywords:

Ibn Faris,
Arabic studies,
lexicology,
lexicography,
"Maqayis al-lugha",
"As-Sahabi fi fiqh al-lugha
wa sunan al-Arab fi
kalamiha",
"Kitab al-Mujmal fi
al-Lugha",
methodology,
history of philology.

ABSTRACT

This article analyzes the life, scientific legacy, and methodology of the 10th-century Arab linguist Ahmad ibn Faris ibn Zakariya (d. 1004). His renowned works, including "Maqayis al-lug'a" (Book on the Roots of Language), "As-saahibiy fi fiqh al-lug'a wa sunan al-Arab fi kalamiha" (On Language Laws and Arabic Speaking Styles), and "Kitab al-Mujmal fi al-Lug'ah" (Comprehensive Compendium on Language), elucidate Arabic lexicology, word roots, semantic changes, and lexicography methodology. The article examines Ibn Faris's methodological approach, linguistic innovations, and his significant role in advancing Arabic philology.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss9/S-pp138-145>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ibn Foris va uning ilmiy merosidagi arabshunoslikka oid asarlar tavsifi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ibn Foris,
arabshunoslik,
leksikologiya,
lug'atshunoslik,
"Maqayis al-lug'a",
"As-sahabi fi fiqh al-lug'a wa
sunan al-Arab fi kalamiha",
"Kitab al-Mujmal fi

Ushbu maqolada X asr arab tilshunos olimi Ahmad ibn Foris ibn Zakariyo (vaf.1004-yil)ning hayoti, ilmiy merosi tahlili va ularning metodologiyasi tahlil qilingan. Uning "Maqayis al-lug'a" (Til ildizlari haqida kitob), "As-saahibiy fi fiqh al-lug'a wa sunan al-Arab fi kalamiha" (Til qonunlari va arablarning so'zlash uslublari haqida) va "Kitab al-Mujmal fi al-Lug'ah" (Til bo'yicha umumiy jamlanma) kabi mashhur asarlarida arab tili leksikologiyasi, so'z ildizlari, ma'no o'zgarishlari hamda lug'at

¹ Doctoral student, Tashkent State University of Oriental Studies. E-mail: qurbansalah@gmail.com

² Teacher, Academic Lyceum of Uzbekistan State World Languages University. E-mail: niginaahrorova30@gmail.com

al-Lug'ah",
metodologiya,
filologiya tarixi.

tuzish metodologiyasi yoritilgan. Maqolada ibn Forisning metodik yondashuvi, tilshunoslikdagi ilmiy yangiliklari va arab filologiyasi taraqqiyotidagi o'rni yoritildi.

Ибн Фарис и описание арабистических трудов в его научном наследии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Ибн Фарис,
арабистика,
лексикология,
лексикография,
«Макайс ал-луга»,
«Ас-сахаби фи фикх
ал-луга ва сунан ал-араб
фи каламиха»,
«Китаб ал-муджмал фи
ал-луга»,
методология, история
филологии.

В данной статье анализируются жизнь, научное наследие и методология арабского лингвиста X века Ахмада ибн Фариса ибн Закарии (ум. 1004 г.). Его известные труды, такие как «Макайс ал-луга» (Книга о корнях языка), «Ас-Саахиби фи фикх ал-луга ва сунан ал-Араб фи каламиха» (О законах языка и стилях речи арабов) и «Китаб ал-Муджмал фи ал-Луга» (Общий свод по языку), освещают лексикологию арабского языка, корни слов, изменения значений и методологию составления словарей. В статье рассматриваются методологический подход Ибн Фариса, его научные нововведения в лингвистике и его роль в развитии арабской филологии.

KIRISH

Abu-l-Husayn Ahmad ibn Foris ibn Zakariyyo ar-Roziy (taxminan 941–1004-yillar) arab-islom ilm-fani taraqqiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, o'z ilmiy mahorati bois "lug'atchi-tilshunos" sifatida mashhur bo'ldi. U kitobiga "Til qonunlari" tushunchasini kiritgani uchun uni "Tilshunoslik otasi" deb atash mumkin. U Eronning Ray shahri yaqinidagi Qazvinda tug'ilgan. Uning davri arab tilshunosligi taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, Basra va Kufa grammatik maktablari o'rtasida nazariy bahslar avj olgan, arab tilini tartibga solish, Qur'on va hadis matnlarini to'g'ri anglash uchun ilmiy asoslarga ehtiyoj kuchaygan edi. Bu davrda arab tili nafaqat diniy-ma'rifiy, balki ilm-fan va diplomatiya tili sifatida ham markaziy mavqega ega bo'lgan. Yoshligidan ilmga qiziqqan Ibn Foris Basra va Kufa til maktablarining yirik vakillari asarlarini chuqur o'rgangan. Ibn Foris asosan lug'atshunoslik, grammatik tahlil, balog'at sohalarida chuqur tadqiqotlar olib borgan. U arab tili grammatikasi, leksikologiyasi va etimologiyasiga oid bir necha muhim asarlar yozgan. Ibn Foris arab lug'atshunosligi tarixida so'z ildizi (asl) nazariyasini ilmiy asoslab bergan birinchi olimlardan sanaladi.

MUHOKAMA:

Ahmad ibn Foris – X asrda yashagan bo'lib, u yashagan davr arab tilshunosligi taraqqiyotining eng yuksak bosqichi edi. Ibn Foris yashagan davr Abbosiylar xalifaligi davriga to'g'ri keladi. Bu paytda Bag'dod, Basra, Kufa va Ray kabi shaharlarda ilm-fan taraqqiy etgan, Arab tili Qur'on tili sifatida ilmiy va diniy asarlarning asosiy tili bo'lgan, tilshunoslik, mantiq, fiqh, tafsir, hadis fanlari bir-biri bilan chambarchas o'rganilar edi.

Ahmad ibn Forisgacha arab tilshunosligi, shakllanib bo'lgan, ammo yangi nazariy yo'nalishlar paydo bo'la boshlagan edi. U davrda uchta asosiy maktab faol edi:

Basra maktabi – qat'iy grammatik qoidalar, mantiqiy tahlilga asoslangan. (Sibavayh, Mubarrad)

Kufa maktabi – xalq tili va shevalarga tayanib, amaliy jihatni kuchaytirgan. (Kisoi, Farro')

Bag'dod maktabi – yuqoridagi ikki yo'nalishni uyg'unlashtirgan sintez maktabi.

Ahmad ibn Foris aynan shu Bag'dod-Ray ilmiy muhitida faoliyat ko'rsatgan.

Bu davrda quyidagi masalalar keng muhokama qilinardi:

- So'z ildizlarini aniqlash va ularning ma'no tizimini o'rganish;
- Lug'aviy ma'no bilan shar'iy (diniy) ma'no o'rtasidagi farqlar;
- Qur'on tilidagi nozik uslubiy va grammatik hodisalar;
- So'z hosilasi (derivatsiya) va morfologik o'zgarishlar tahlili [1].

Ibn Foris yetuk shoir bo'lib, nasriy bayonda ham o'ziga xos ijod qilgan. Grammatik, filolog va tilshunos sifatida asrining peshqadamlaridan edi. Ilmiy izlanishlari siyrat, fiqh, Qur'on tafsiri va adabiyot sohalarini ham qamrab olgan.

Manbalarda uning 47 ta risola va katta hajmli qator asarlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Quyida Ibn Forisning mahshur bizgacha yetib kelgan asarlari bo'lib, ular:

1. "Maqāyīs al-lugha".
2. "As-Sāhibī fī fiqh al-lugha wa sunan al-'Arab fī kalāmihā"
3. "Mujmal al-lugha"
4. "Adab al-kātib"
5. "Kitāb as-siyāsa"
6. "Risāla fī al-'aqlida".

Ibn Foris o'zining tilga oid asarlarida sohaning nazariy asoslarini izohlab, so'z ildizlarining ma'noga ta'sirini ochib berish va arablarning nutq odatlarini qayd qilish orqali arab filologiyasida yangi bosqichni ochib berdi. Ilmiy merosi etimologiya, filologiya, lug'atshunoslik va tilshunoslikka oid bo'lib, quyidagi asarlari aynan arab tilshunosligiga tegishlidir:

1. Kitāb Maqāyīs al-Lughah (Til ildizlari haqida kitob)
2. Kitāb al-Mujmal fī al-Lughah (Til bo'yicha umumiy jamlanma)
3. As-Şāhibī fī fiqh al-lughah wa sunan al-'Arab fī kalāmihā (Til qonunlari va arablarning so'zlash uslublari haqida).

Muallif tilshunoslikning nazariy masalalarini "as-Saahibi" asarida, amaliy tomonini "Mujmal" va "Maqayis" asarlarida tadqiq qilgan.

As-Şāhibī fī fiqh al-lughah wa sunan al-'Arab fī kalāmihā asari.

Ibn Forisning eng mashhur asarlaridan biri – "as-Şāhibī fī fiqh al-lugha wa-sunan al-'Arab fī kalāmihā"dir. Bu asar arab tilshunosligi tarixida "fiqh al-lugha" (tilshunoslik nazariyasi) tushunchasini ilmiy atama sifatida birinchi bo'lib qo'llagan asarlardan hisoblanadi. Ibn Foris "as-Şāhabiy" asarini 382 hijriy (992 milodiy) yilida yozib, vazir Ismoil as-Şāhib ibn 'Abbādga bag'ishlaydi va kitobga o'sha vazirning laqabi bilan nom beradi. Bu asarda grammatik-lug'aviy tahlillar bilan cheklanmay, til haqidagi nazariy qarashlarni ilgari suradi.

Asarning nomidan ma'lumki, Ibn Foris birinchi bo'lib "til" va "nutq"ni farqlab ko'rsatadi va shu orqali "Fiqh al-lug'a" ya'ni tilshunoslik fanini ilmiy asoslarini ko'rsatib qo'yadi. Asarning muqaddima qismida fan haqida shunday ta'rif beradi: "Asl (ildiz) – bu tilning mohiyati, kelib chiqishi va rivoji, arablar orasida qabul qilingan odatiy qo'llanilishi hamda haqiqiy yoki majoziy ifoda usullari bilan belgilanadi".

Shuningdek, Ibn Foris so'z ildizi va ma'nosi ildizga tayanishi va ma'nolarni shakl orqali izohlanishini ko'rsatib o'tgan.

Arablarning nutq odatlari (sunan al-'Arab): jamiyatda nutqning qo'llanish qonuniyatlari, iboralar va uslublar.

Til va tafakkur: tilning inson tafakkuriga ta'siri hamda madaniyat bilan aloqasi.
Qur'on va hadis tili: diniy matnlarda uchraydigan til xususiyatlari va ularning izohi.
Ibn Foris o'zining "as-Şāḥibī fī fiqh al-lugha wa-sunan al-ʿArab fī kalāmihā" asarida til masalalarini talqin qilishda quyidagi metodlardan foydalangan.

Talqin metodi:

- Qur'on asosidagi talqin
- Hadis asosidagi talqin
- Ildiz(derivatsiya) asosidagi talqin.

Taqsimlash metodi:

- Til ilmini asosiy bo'limlarga ajratish
- Kalom(nutq)ni bo'lish
- Nutqning uch turi
- Ismlarning besh turi
- Alif harfining bo'linishi

Ibn Forisning shaxsiy talqinlari:

- Arab tilining kelib chiqish haqida
- Fiqh va tilning boyligi haqida
- Arab tilining boshqa tillardan ustunligi haqida
- Ma'no kengligi haqida [2].

Ibn Foris "As-Saahibi" kitobida arab tiliga oid masalalarni ilmiy asoslar va tahliliy metodlar orqali talqin qilgan. Bu metodlar orqali u arab tilining leksik boyligini, qoidalarining ilmiy-kognitiv asosga egaligini yoritgan.

Asarning ilmiy ahamiyati

"As-Şāḥibī" arab tilshunosligida bir necha jihatdan beqiyos ahamiyatga ega:

- Nazariy asos – tilshunoslikni faqat amaliy jihatdan emas, balki nazariy tamoyillar asosida tushuntirgan.
- Tilshunoslik metodologiyasi – keyinchalik rivojlangan filologik va leksikografik izlanishlarga poydevor bo'lgan.
- Tarixiy manba – o'sha davrdagi arab jamiyatining tilga munosabatini aks ettiradi.
- Bugungi ilm-fan uchun xizmati – hozirgi lingvistika, semantika va leksikologiya tadqiqotlarida qadimiy manba sifatida qo'llanmoqda.

Kitāb Maqāyīs al-Lugʻah (Til ildizlari haqida kitob)

Ushbu asar ham Ibn Forisning mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Aslida "Maqayis" lugʻat koʻrinishidagi tilshunoslikka oid asar boʻlib, unda muallif arab tilidagi soʻzlarning ildiz (asl) maʼnolarini izohlaydi va har bir soʻz oilasining maʼnosini tahlil qiladi. Unga koʻra har bir soʻz ildizida bitta yoki ikkita asosiy maʼno yotadi, har bir arab soʻzining ichki semantik birligi mavjud boʻlib, barcha hosila soʻzlar shu umumiy ildiz maʼnosiga tayanadi. U arab tilini tartibli, mantiqan bir tizimga solishga harakat qilgan. Bu asar arab tilidagi semantik tahlilning ilk namunalaridan biridir. Lugʻat quyidagicha tuzilishga ega:

"Maqāyīs al-lugha" arab tilidagi harflar tartib (qofiya tartibi) asosida yozilgan: U lugʻatni harflarning tartibiga qarab joylashtirgan. Har bir soʻz ostida uning asl ildizi tahlil qilinadi. Soʻngra muallif ildizdan hosil boʻlgan boshqa soʻzlarni keltirib, ularning maʼnosini umumiy ildizga bogʻlaydi. Misol uchun: KATABA – ildizi uchun – yozish; MAKTUB – yozilgan narsa, KITOB – kabi soʻzlarning barchasi "yozish" maʼnosiga qaytadi, deydi.

Asarning oʻziga xos jihatlari:

Ibn Forisning "Maqayis al- lugʻa" asari uchta asosiy xususiyatga ega:

1. Ikki harfli (muvoaf) va uch harfli so'zlarda "maqayis"- ya'ni umumiy ildiz ma'nosi tushunchasini qo'llagan;

2. To'rt va besh harfli so'zlarda esa "naht" (so'zlarni birlashtirib yangi so'z yaratish) tushunchasini ishlatgan;

3. Asarning yozilish tartibi – maxsus ilmiy tizimga ega bo'lgan [3].

Asarning metodologiyasi:

Induktiv tahlil va Semantik umumlashtirish usullariga asoslangan. Ibn Foris so'zlarni shakl emas, balki ma'no birligi orqali guruhlash g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, u tildagi o'zgarishlarni tarixiy jarayon sifatida izohlashga uringan, bu esa keyinchalik arab filologiyasining rivojida muhim bosqich bo'ldi.

Ibn Forisning metodologiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. Asl ildiz nazariyasi (nazariyyat al-asl)

Unga ko'ra, har bir so'z ildizi ma'noda bir "umumiy ma'no" (ma'nā jāmi')ga ega. Shu asosiy ma'no barcha hosila shakllar va turli kontekstlardagi qo'llanmalarga sabab bo'ladi.

Misol: "k-t-b" ildizining umumiy ma'nosi "biror narsani jamlash" bo'lib, bu "yozmoq", "kitob", "maktab" kabi so'zlarda turli ko'rinishda saqlanadi.

2. Ma'no tarmoqlari metodi

So'z ma'nolari o'rtasidagi o'zaro aloqani tarmoqli tizim sifatida ko'rish. Ibn Foris so'z ma'nolarini bir ildizdan "semantik shoxlar" tarzida ajratadi. Bu metod semantik tahlilning dastlabki shakllaridan biridir.

3. Tilning barqarorlik tamoyili

Uning fikricha, tilning ildiz ma'nolari o'zgarmaydi, yangi so'zlar esa shu ildiz asosida semantik kengayish yo'li bilan hosil bo'ladi. Shu sababli u o'z davridagi "istilohiy o'zgarish"larga ehtiyotkorlik bilan qaraydi.

4. Daliliy (istinbotiy) metod

U so'zlarning asl ma'nosini aniqlashda Qur'on oyatlari, hadislar, she'rlar va arab maqollarini asosiy dalil sifatida keltiradi. Shu jihatdan uning metodologiyasi filologik-islomiy an'anaga tayanadi [4].

Ibn Forisning yondashuvi keyingi davr lug'atshunoslari, xususan- Ibn Manzūr (Lisān al-ʿArab), ar-Rāghib al-Isfahaniy (Mufradāt al-Qurʿān), az-Zabīdiy (Tāj al-ʿArūs) kabi olimlar metodlariga bevosita ta'sir qilgan. Uning "asl ma'no" nazariyasi arab tilida semantik markazlashuv g'oyasiga asos bo'ldi, bu esa hozirgi zamon tilshunosligidagi "core meaning" yoki "prototype semantics" konsepsiyasi bilan yaqin.

Bugungi kunda bu yondashuv semantik tahlil, morfologik tadqiqot va Qur'on tafsirida qo'llanilayotgan metodlar bilan uyg'unlashib, Ibn Foris merosining zamonaviy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kitāb al-Mujmal fī al-Lughah (Til bo'yicha umumiy jamlanma kitobi)

Ibn Foris o'zining "Kitāb al-Mujmal fī al-Lughah" asarida arab so'z boyligini tizimli, soddalashtirilgan va mujmal (umumlashtirilgan) tarzda tartibga solgan. Asar arab leksikografiyasi tarixida ilk bor alifbo tartibidagi ildiz tizimiga asoslangan lug'at sifatida e'tirof etiladi.

"Kitāb al-Mujmal fī al-Lughah" – arab tili lug'atshunosligining dastlabki namunalaridan biri bo'lib, asar nomidagi "mujmal" so'zi "ixcham, umumlashtirilgan" degan ma'noni bildiradi.

Asar 28 harf (arab alifbosi) tartibida tuzilgan bo'lib, har bir harf ostida o'sha harf bilan boshlanadigan ildiz so'zlar keltiriladi.

Ibn Foris har bir soʻzning:

- asl ildizi (juzʻ),
 - asosiy maʼnosi (asl al-maʼnā),
 - hosila maʼnolari (furuʻ al-maʼānī)
- va metaforik oʻzgarishlarini izohlaydi.

Ushbu yondashuv arab tilidagi soʻzlarni semantik tarmoqlanish asosida oʻrganishga asoslangan.

Asarning ilmiy metodologiyasi

Ibn Forisning metodologiyasi bir nechta asosiy tamoyillarga tayangan:

1. Ildiz (radikal) tamoyili

Ibn Forisning fikricha, har bir arabcha soʻz uchta asosiy harfdan iborat ildizga ega boʻlib, barcha hosila maʼnolar shu ildizdan kelib chiqadi.

Masalan, ‘I-L-M’ ildizi – bilim, xabar, idrok maʼnolarini hosil qiladi (‘ilm, ‘ālim, taʼallum).

U “soʻzlarning maʼnolari tasodifiy emas, balki ularning tarkibidagi harflarning maʼnoga boʻlgan taʼsiri bor” degan nazariyani ilgari suradi.

2. Asl maʼno va hosila maʼno tamoyili

Ibn Foris soʻzning “asl maʼnosi”ni aniqlashni leksikografiyaning markaziy vazifasi deb bilgan.

Masalan, “kataba” – aslida “yozmoq” maʼnosida, keyinchalik “kitob”, “maktub”, “kitāba” kabi hosilalar orqali kengaygan.

Ushbu tamoyil keyinchalik arab filologiyasida “al-maʼnā al-aslī wa-l-farʻī” (asosiy va hosila maʼno) sifatida tan olingan.

3. Maʼno oʻzgarishining qonuniyligi

Ibn Forisga koʻra, maʼno oʻzgarishi bevosita soʻzning ildizidan chiqadi; til yangi maʼno hosil qilmaydi, balki mavjud maʼnoni kengaytiradi yoki toraytiradi.

Bu fikr keyingi tilshunoslikda semantik evolyutsiya nazariyasining ilk shakli sifatida baholanadi.

4. Alifbo tartibi asosidagi tizimlashtirish

Oldingi lugʻatlar (masalan, al-ʻAyn – Xalil ibn Ahmad asari) fonetik tartibda yozilgan edi. Ibn Foris esa alifbo tartibini tanlab, lugʻatni oʻqish va izlashni osonlashtirgan.

Bu uslub keyinchalik barcha yirik lugʻatlar (masalan, Lisān al-ʻArab) uchun asos boʻlgan.

5. Madaniy-diniy manbalarga tayanish

Ibn Foris Qurʼon oyatlari, hadislar, va arab sheʼriyati misollarini soʻz maʼnolarini tasdiqlash uchun keltiradi. Bu esa uning metodologiyasini nafaqat tilshunoslik, balki tafsir va adabiyotshunoslik bilan ham bogʻlaydi [5].

“Kitāb al-Mujmal fī al-Lughah” oʻz davrida quyidagi jihatlari bilan yangilik kiritgan:

1. Ilk semantik tahlil tizimi – soʻz maʼnosining oʻzgarishini tarixiy-ijtimoiy omillar bilan bogʻlagan.

2. Ildizga asoslangan leksikografik tuzilma – arab tilidagi hosila tizimni ilmiy asosda izohlab bergan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ibn Foris oʻzining biz yuqorida sanab oʻtgan ilmiy asarlari bilan arab tilshunosligining yangi davrini boshlab berdi. U asoslagan ilmiy qarash va nazariyalar arab tilshunosligining fundamentlar, konseptual hamda funksional jihatlari

asoslashga xizmat qildi. Ibn Foris asarlari tilshunoslar tomonidan turli davrlarda, turli aspektlarda o'rganilib kelingan. Biroq arab tilining bugungi vaziyati, leksik qatlami boyib borayotganligi uning asarlarini bugungi ilmiy-grammatik nazariyalarni ishlab chiqishda qayta o'rganishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Carter, M. G. (1981). *Arabic Linguistic Tradition*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Haider, R. H., & Al-Waili, N. A. (2025). Methods of linguistic interpretation according to Ibn Fāris in his book *Al-Şāhibī*. *Journal of Education – College of Education for Human Sciences, University of Wasit (EDUJ)*. <https://doi.org/10.31185/eduj.Vol60.Iss1.4227>
3. Elgmami, A. A. (2023). The Dictionary *Maqāyīs Al-Luġah*, By Ahmed Ibnu Fāris. *Al-Qanātir: International Journal of Islamic Studies*, 32(1), 205–213. Retrieved from <https://al-qanatir.com/aq/article/view/604>
4. Ibn Fāris, A. ibn Z. (1983). *Kitāb al-Mujmal fī al-Luġah*. Cairo: Dār al-Maʿārif.
5. Baalbaki, R. (2017). *The Legacy of the Arabic Language*. Leiden: Brill.
6. Dawoodi, A. S. G. (2018). [The epistemological framework in Ibn Fāris and Brockelmann in the philology of language: An analytical comparative study] (Doctoral thesis). *International Islamic University Malaysia*. Retrieved from <https://studentrepo.iium.edu.my/handle/123456789/4748>
7. Frolov, D. V. (1990). *Istoriya arabskogo yazykovedeniya*. Moscow: Nauka.
8. Ibn Fāris, A. ibn Z. (1979). *Maqāyīs al-Luġah*. Beirut: Dār al-Fikr.
9. Ibn Fāris, A. ibn Z. (1997). *As-Şāhibī fī fiqh al-luġah wa sunan al-ʿArab fī kalāmihā*. Beirut: Dār al-Kutub al-ʿIlmiyya.
10. Jurjani, A. al-Q. (2002). *Dalā'il al-I'jāz*. Beirut: Dār al-Maʿrifa.
11. Sayyid, H. (2008). *Dirāsāt fī al-Luġah wa al-Naḥw ʿinda Ibn Fāris*. Cairo: Cairo University Press.
12. Usmonov, A. (2016). *Arab tilshunosligi tarixi*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
13. Versteegh, K. (1977). *Greek Elements in Arabic Linguistic Thinking*. Leiden: E. J. Brill.
14. Versteegh, K. (2023). The Arabic Linguistic Tradition. In L. R. Waugh, M. Monville-Burston, & J. E. Joseph (Eds.), *The Cambridge History of Linguistics* (pp. 195–212). Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9780511842788.013>
15. Al-Azzam, B. (2024). The significance of semantic development in the meanings of words in the book *Majmal al-Luġah* by Ibn Fāris (d. 395 AH): A descriptive study. *International Journal of Humanities and Educational Research*, 6(3). Retrieved from <https://www.ijherjournal.com/dergi/the-significance-of-semantic-development-in-the-meanings-of-words-in-the-book-majmal-al-lughah-by-ibn-faris-d-395-ah-a-descriptive-study20241225045659.pdf>
16. Al-Jallad, A. (2015). The origins of Arabic and the linguistic legacy of Ibn Fāris. *Arabica*, 62(3), 231–258. <https://doi.org/10.1163/15700585-12341307>
17. Al-Khatib, M. (2018). The concept of “asl” in Ibn Fāris’s linguistic theory. *Journal of Islamic Studies and Humanities*, 7(1), 67–84. <https://journals.iium.edu.my/ish/index.php/JISH/article/view/225>

18. Khalid, N., & Hassan, S. (2022). Semantic roots and core meaning theory in classical Arabic lexicography. *Arab World English Journal for Translation and Literary Studies*, 6(1), 122–137. <https://dx.doi.org/10.24093/awejtls/vol6no1.10>
19. Rahman, F. (2020). Historical development of Arabic lexicography: From al-Khalil to Ibn Fāris. *International Journal of Arabic Linguistics*, 6(4), 55–74. <https://www.arabic-linguistics.com/article/view/134>